

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4 Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Sh. Mardonov, O. Jabborova	6	Ta'lif jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari
A. Abdullayev	9	Boshlang'ich ta'lifda jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi
D. Maxmudova	12	Maktabgacha yoshdag'i bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar
M. Musurmonova	16	Umumiy o'rta ta'lif maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lif sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati
R. Musurmanov, M. Musurmonova	20	Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida
F. Ochilov	23	Umumiyo'rta ta'llim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati
B. Axmadaliyev	27	Umumiy o'rta ta'lif maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakkantirishda texnologik ta'lif darslarining ahamiyati
G. Tojiboyeva, Z. Suleymanova	31	Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli
U. Shermatova	35	Millat ruhini saqlash yo'lida
F. Atabekov	39	Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashhg'ulotlarining o'mni
O. Jabborova	43	Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'lifni rivojlanishining pedagogik muammolari
M. Achilova	46	Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli
D. Po'latova	50	Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari
Z. Umarova	54	Ta'lif muassasalaridagi nizolarni hal qilish



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

M. Abdullayeva	57	Pedagogik va tarbiyaviy ishlar metodikasi
G. Kuzmanova, B. Alimov, N. Beketov	61	Uchinchi tartibli tenglamalar
X. Gulyamova	65	Umumiy o'rta ta'lif maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi
R. Nosirova	69	Maktabgacha ta'lifda metakognitiv ko'nikmalarni shakkantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni mактабга тайярлаш



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

D. Mutalova	73	Ta'lif klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida
L. Bolivayeva	76	Oliy ta'lifda "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari

	X. Gulyamova, U. Shermatova 79 Ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarni xalqaro "pirls" nazoratiga tayyorlash
	A. Karimjonov, O. Jabborova 83 Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "tarbiya" fanini o'qitishning zamонави texnologiyasi
	Z. Shanasirova 86 Bolalarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari
MILLIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI	
	R. Nosirova, N. Rustambekova 89 O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-ylgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyatga joriy etish texnologiyalari
JISMONIY TARBIYA VA SPORT	
	E. Soatov 93 Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ularning psixologik holatini o'rganish
	F. Abdullayev B. Abdullayeva 97 Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida jismoniy mashqlarning o'mi
	A. Jo'raboyev 101 Jismoniy tarbiya va sportning bola tafakkuriga ta'siri
	E. Hurramov 104 Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mash'ulotlariga umumiy tasnif
MAKTABGACHA TA'LIM	
	N. Maripova 107 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga noan'anaviy applikatsiya yasash usullarini o'rgatish
	A. Sanakulova 111 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar
	Z. Teshabayeva 114 Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish o'yin faoliyati shakllarini tashkil etish
	L. Narimbayeva 117 Maktabgacha yoshidagi bolalar hayotida teatrning roli
	N. Urinova, A. Abdullayev 121 Ilk yoshidagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati
	Z. Nasirova 124 Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatick aspektlari
	S. Xolmatova 128 Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirish omillari
ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR	
	Z. Narimbetova 131 Matematika darslarda o'quvchilar ijodkorligini rivojlanishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'mni
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ	
	Ш. Мардонов, У. Закирова 134 Об основных понятиях педагогических ценностей
	Ю. Кушназарова 138 Теоретические исследования в математике
ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ	
	Р. Гимазутдинов 141 Знания по физической культуре – основа физкультурного образования дошкольников

Zuhra NASIROVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lism" kafedrasи o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA TILNING FONETIK, LEKSIK VA GRAMMATIK ASPEKTLARI

Annotation

Maqolada maktabgacha ta'lism tizimida bolalar nutqini rivojlantirish har doim asosiy masha-sifatida qaralgan. Bolalarning nutq texnikasi, nutqiy faoliyati, stilistik normalar asosida shakllanishi uchun tilning fonetik, morfologik, leksik va grammatik aspektlari asos bo'ladi.

Kalit so'zlar. Nutq, til, aspekt, iqtidor, tafakkur, tovush, temp, akustika.

Правильное формирование речи у дошкольников в основном связано с учебным процессом и деятельностью. В системе дошкольного образования развитие речи детей всегда считалось ключевым вопросом.

Ключевые слова. Речь, язык, аспект, талант, мышление, звук, темп, акустика.

The correct formation of speech in preschool children is mainly associated with the educational process and activities. In the preschool education system, the development of children's speech has always been considered a key issue.

Key words. Speech, language, aspect, talent, thinking, sound, tempo, acoustics.

Nutq madaniyati jamiyatning madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. yetuk mutaxassislarini, ayniqsa, yosh avlod tarbiyachilarini tayyorlashda til ilmi muhim ahamiyatga ega. Bolalar bilan ishlaydigan pedagoglarning o'z ona tilida to'g'ri so'zlashi birinchi omil ekanini K.D.Ushinskiy pedagogik ta'lomitida alohida ta'kidlaydi.

"Bolalar nutqini o'stirish", "Bolalar nutqini o'stirish metodikasi", "Katta guruhdagi bolalar nutqini o'stirish" kabi ilmiy metodik qo'llanmalarida bolalar nutqi bilan ishlashda lug'at imkoniyatlaridan keng foydalanish, tilning fonetik, leksik va sintaktik jihatlariga e'tibor qaratishni tatbiq qiladi. Unda ta'larning maktabgacha bo'lgan davrida bolalarga ayrim so'zlarning ma'nosi haqida tushuncha berish, bir so'zning bir necha ma'noda kelishi, ifoda turlarini bilib olishlari bolalarning tafakkur qilish faoliyatiga, erkin fikr yuritishlariga, o'zgalar fikrini anglay olishlariga zamin bo'ladi.

Albatta, bolalar nutqini o'stirishda tevarak-atrof, o'yinchoq va predmetlar, turli rasmlar, xalq og'zaki ijodi, sahna faoliyati, mehnat, jamiyat, oila, mahalla muhim omil bo'ladi. Lekin nutqning tovush madaniyatini, tovushlarning to'g'ri talaffuzini, tilning leksik qatlamlaridan foydalanishni, grammatik qurilishni shakllantirishni ham bolalar maktabgacha yoshida o'rgatish maqsadga muvofiq deb qaraladi.

Shu jihatdan nutq o'stirish markazlarida bolalarning tovushlarni to'g'ri talaffuzi ham tarbiyachi tomonidan nazoratda bo'lishi kerak. I.Tixeeyeva o'zining ilmiy nazariyalarida

K.D. Ushinskiy g'oyalariga tayanadi, bolalar nutqi ravon bo'lishi uchun o'z ona tilisini birlamchi qo'yadi va quyidagi maqsadlarni asosiy deb qaraydi.

1. Lug'at imkoniyatlardan to'g'ri va o'rini foydalanish.

2. Bolalar tafakkuriga til orqali ta'sir qilish.

3. Tilning fonetik, leksik va grammatick jihatlarini o'rganish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida, ular o'z fikrlarini ifodalash jarayonida qator fonetik o'zgarishlar yuzaga kelishi tabiiy.

Ya'ni bola tuproq emas – turpoq, aylanish emas – aynalish, yomg'ir emas – yong'ir; kabi metatezik ya'ni tovushlarning o'rin almashuvি hodisasi sodir bo'lishi tabiiy.

Yoki fonetik hodisalardan yana tovush orttirilishi hodisasi kuzatiladi. Bu hodisa so'z boshida misol uchun stakan emas – istakon, stol emas – ustol.

So'z o'rtasida fikr emas – fikr; yaproq emas – yapiroq; barg emas – barig.

Bolalar nutqida so'zlarni talaffuzi jarayonida bir tovush boshqa tovush bilan almashtirib aytlishi ham kuzatiladi.

Misol uchun maqtov o'mniga – maxtov; to'qson so'zi o'mniga to'xson; taqsim o'mniga – taxsim.

Har bir tilning mana shunday fonetik jarayonlari mavjud bo'lgani sababli bolalarga orfoepik qoidalar unlilar va undoshlarni o'z o'rniда va to'g'ri talaffuzini ham ta'minlab borish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim yoshidagi tarbiyalanuvchilar meva – sabzavotlar nomini qo'llashda eng ko'p orfoepik xatoliklarga yo'l qo'yadilar.

Nutq o'stirish va to'g'ri so'zlash ta'lim tizimining barcha bo'g'inida asosiy o'rinda bo'lishi kerak deb qaraydi. Har bir millat o'z ona tilisining leksemasidan imkon qadar foydalanishini ko'rsatadi. Unda ta'limning maktabgacha bo'lgan davrida bolalarga ayrim so'zlarning ma'nosi haqida tushuncha berish, bir so'zning bir necha ma'noda kelishi:

- tosh yo'l, tosh yurak, tosh bag'r; so'zlarning boshqa predmetlarga ko'chib aytlishi;
- ko'z-ko'rish a'zosi, ignaning ko'zi, derazaning ko'zi, eshikning ko'zi, buloqning ko'zi;
- yoqa-ko'ylak yoqasi, yo'l yoqasi, daryo yoqasi.

So'z ma'nolarining ko'chishida: qulog-inson qulog'i, qozon qulog'i; oyoq-inson oyog'i, stul oyog'i; tish-inson tishi, arraning tishi; og'iz-inson og'zi, o'choqning og'zi; lab-inson labi, ariq labi; qosh-inson qoshi, egarning qoshi; bel inson beli, yog'ochning beli; inson qorni, rubob qorni; bosh-inson boshi, ko'chaning boshi, ishning boshi kabi.

5-7 yoshli bolalarda nutq o'stirish mashg'ulotlari jarayonlarida tana a'zolarining shunday ko'chma ma'noda kelishi haqida ham ma'lumot berib o'tilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday jarayonlarni olimlar o'z tadqiqotlarida qo'llaganlar va bolalar uchun juda qiziqarli bo'lishi asoslangan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar so'zlarning sinonimik, omonimik, antonimik qatorlarini aytta olishi, paronimlar va uyadosh so'zlarni guruhlay olishlari va farqlay olishlari darkor.

Bolajonlar nutqida eng ko'p qo'llaydigan ona, ustoz, chiroyli, mehribon, so'zlashmoq, ishlamoq va boshqa faol so'zlarning ham bir xil ma'no beruvchi qatorlarini aytta bilishi zarur.

Kichik yoshdagi bolalar nutqi rivoji ustida ishlaganda I.Tixeeyeva eng ko'p qo'llagan terminologiyasi so'zlarning qarama qarshi ma'nolari deydi. Chunki bolalarga so'zlarni taqqoslab, solishtirib aytilganda xotirasida tez saqlanadi. Antonimik qatorlar kichik yoshdagi bolalarga maza – ta'm; shirin-achchiq, o'Ichov; uzun-qisqa, shakl; katta-kichkina, rang-tus; oq-qora, kabi. Fasllarga nisbatan qiyoslabyoz-issiq; qishsovq.

4-7 yoshli bolalar bir "oila"ga kiruvchi ya'ni uyadosh so'zlarni guruuhlay olishlari

kerak. Oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar, hayvonlar, uy anjomlari, o'yinchoqlar.

O'z ona tilida tilning leksik imkoniyatlaridan foydalana olgan bola boshqa tillarni o'zlashtirishi oson kechadi. Bolajonlarni keyingi bosqich-maktabga tayyorlashda atamalarni to'g'ri aytish, adabiy tilda so'zlashish, o'z fikrini ifoda etayotganda tasviriy ifoda vositalarida foydalanishga erishish zarur.

Katta guruhga o'tganda bolajonlar albatta o'z fikrini ifoda eta olishlari, mustaqil ravishda gap tuza olishlari kerak. Kelishik ko'shimchalaridan to'g'ri foydalanish, so'zlarni bog'lay olishi, so'z turkumlari o'rnini to'g'ri qo'llash to'g'ri gap qurilmasiga olib keladi va bolalar nutqidagi grammatik tizimni shakllantiradi. Bolalar o'z nutqida undalmalardan, kirish so'z va gaplardan foydalana olishlari kerak.

Bolalarning nutqi o'z iqtidoriga qarab turlicha rivojlanadi. Lekin nutqning grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishiga tarbiyachi motivatsiyasi ham ahamiyatlari. Bola o'z fikrini to'g'ri ifodalashi uchun biror qiziqarli mavzu haqida ma'lumotga ega bo'lishi talab qilinadi. Bola nutqini asosan oddiy gaplar tashkil qiladi. Mana shu gap qurilmasini to'g'ri tuzish albatta tarbiyachi tomonidan kuzatiladi va bolalarda nutqning grammatik qurilishini shakllantirish mezonlaridan foydalaniladi.

Pedagog olimlar didaktik o'yinlar, grammatik mazmundagi mashqlar sintaktik qurilishni shakllantirishda qo'l kelishini ta'kidlaydilar.

Bola nutqining grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishining eng faol usuli hikoya qilish, qayta hikoya qilish hisoblanadi. Bolalar eshitgan ertaklari, hikoyalari, voqeahodisalarini hikoya qilishda qator xatoliklarga yo'l qo'yadi.

Nutqdagi bunday xato va kamchiliklarni bartaraf etish uchun turli usullardan foydalanish qo'l keladi.

I.Tixeeyeva o'zining ilmiy tadqiqalarida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida grammatik tizimni to'g'ri shakllantirish uchun bolalar talaffuz normalarini o'zlashtirib olishlari, bog'lanishli nutq ko'nikmalarini hosil qilgan bo'lislari muhim deb qaraydi. Bunda asosiy mezonlarni ko'rsatib o'tadi.

- nutq materiali bolalarning yosh xususiyatiga mos bo'lishi kerak;
- har bir yosh guruhi uchun qiziqish uyg'otishi lozim;
- bolalarning nutqiy malaka va ko'nikmalarini faollashtirish;
- har bir guruh bolalari uchun mos she'r, qo'shiq va ertaklar bilan tanishtirib borish.

Bolalar nutqida grammatik tizim to'g'ri shakllanishi uchun mashg'uilotdan tashqari vaqtarda ham tarbiyachi bolalar bilan nutqini faollashtirishga oid turli didaktik o'yinlarni tashkillashtirib turishi maqsadga muvofiq.

O'yinlar davomida tovush va so'zlarni talaffuz qilishda lab, til, tish, og'iz harakatiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Bunday jarayon bolalarda so'zlarni aytishishi, ularni bir biri bilan bog'lash, tovushlarga urg'u qo'yish va intonatsiya ta'sirini ham anglashga yordam beradi.

Tovush va tovushlar birikmasini to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni to'g'ri bog'lash grammatik tizimning to'g'ri shakllanishiga asos bo'ladi. Bolalar o'zlashtirib olgan so'zlar yordamida mustaqil ravishda nutq qurilmalarini tuza oladilar. Buning uchun bolalarga namunaviylik, yaxshi o'zlashtirilgan nutq orqali unga o'xshash nutq tuza olishi quydagilardan iborat:

- o'z fikrlarini bildirishi uchun bola hayotida qo'llash zaruriyati bo'lgan terminlar asosida bolalar tez va oson matn tuza oladi;
- maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatik jihatlarini o'zlashtirish.

Tovush va tovush birikmalarini to'g'ri talaffuz qilish, tovush va so'zlarni urg'u va intonatsiya ta'siri orqali farqlashga asos bo'ladi. Bolalar yangi so'zlarni o'rganishda o'z nutqlarida uchramagan tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lib, so'z ustida ishlash jarayoni bolalarda passiv lug'atni aktiv lug'atga aylanishiga asos bo'ladi. Shuningdek, yangi so'zlarni eshitish, tushunish va ularni nutqida qo'llash bosqichma-bosqich amalga oshirilib boriladi va yangi so'zlarni muloqot jarayonida qo'llashga erishiladi. Bolalar o'z tengdoshlari bilan, o'zlaridan katta yoshdag'i insonlar bilan muloqot qilishga erishadi. Bolalar nutqida so'z boyligi shakllangan nutq qurilmasini oson o'zlashtiradi.

Egalik kategoriysi (qarashlilik) "mening qiziqishlarim", "mening o'yinchoqlarim", "mening oilam" mavzularida matn tuza oladi. Ko'plik kategoriysi birlikdagi predmetlarni ko'plikda qo'llab gap tuza oladi. Masalan:

1. Sifatning ortirma darajasi (eng katta, eng yaxshi).
2. Sifatning qiyosiy darajasi (kattaroq, yaxshiroq).
3. Ma'qullah va inkor etish (ha, yo'q).
4. Narsalarni o'rnini belgilash (orga tomon, bog'cha tomon).
5. Gap qurilmalarida kelishik qo'shimchalarini to'g'ri qo'llay olish (mening ko'ylagim, ko'yjakni kiydim).
6. Bog'lovchi va uning turlarini qo'llash (va, bilan).

O'z nutqida sonlarni ishlatish ham amalga oshiriladi. Sonlarni tartib va donaga ko'ra talaffuzi shakllanadi (bir, bitta, birinchi).

Bolalar nutqini o'stirish jarayonida yangi kiritilgan so'zlarni o'zlashtirib olishlari uchun asosiy vosita sifatida didaktik o'yinlar va didaktik vositalar nutq motivatsiyasining manbai hisoblanadi. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning nutqini shakllantirish, rivojlantirishda va yoshiga qarab nutqining o'sib borishida nutq faoliyatiga qaratilgan mashg'ulotlar zarur. Nutq mashg'ulotlarining mazmuni jonajon Vatanga, o'z shahri, o'z qishlog'iga nisbatan muhabbat uyg'otish. Bolalarni tabiat va kishilarning hayoti yaqin va olisdagi kishilarning yashash tarzi, mehnat faoliyatiga nisbattan qiziqish uyg'otadi. Bolalar nutqini o'stirishda o'zbek xalq an'analari, urf-odatlari, ertaklardagi qahramonlar tanishtirilib boriladi. Bolalarni maktabgacha bo'lgan davridayoq badiiy tafakkuriga ta'sir ko'rsatish, mustaqil nutq so'zlashga yo'naltirish, qardosh xalqlar madaniy meroslari bilan tanishtirish orqali taqqoslash va boshqa tillarni ham o'rganishga yo'l ochib berishga erishish darkor.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Тихеева И.Е. Основы методики развития речи. Просвещение ПГУ. 2000.
2. Тихеева И.Е. Развитие речи детей. Просвещение. 1998.
3. Тихеева И.Е. Развития речи детей раннего возраста. Просвещение ПГУ.1990.
4. Rasulov R., Niyozmetova R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. Fan va texnologiya. 2009.
5. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T., 2011.
6. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – T., 2018.